

SJIF 2024: 6.907
ISSN (E): 2835-5326



2024 CANADA CONFERENCE

VOLUME 3
ISSUE 2



E- CONFERENCE
SERIES

INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENTIFIC RESEARCH IN NATURAL AND SOCIAL SCIENCES

February, 5th, 2024



TOPICS COVERED

- NATURAL SCIENCES
- SOCIAL SCIENCES
- APPLIED SCIENCES
- MEDICAL SCIENCES
- ENGINEERING SCIENCES

www.econferenceseries.com

Vol. 3 No. 2 (2024): ICSRNSS

ARTICLES

1. MECHANISMS AND METHODS OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS, THE EXPERIENCE OF IPOTEKABANK OTP GROUP
Bobir Bakhodirovich Sultonmurodov
1-4
2. USE OF L-CARNITINE FOR ACUTE OBSTRUCTIVE BRONCHITIS IN CHILDREN WITH MYOCARDITIS
Ataeva Muhiba Sayfieva, Avliyoyev Azamat, Arabov Ohunjon, Khaydarov Odilkhon Lazizovich
5-8
3. ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ
Магистрант Абдиев Джахонгир Ибрагимович
9-14
4. THE PRACTICE OF DETERMINING AND ASSESSING TAX EVASION IN UZBEKISTAN
Akhmedov Feruz Bakhodirovich
15-19
5. JINOYAT VA JINOYATCHILIK HAQIDA TUSHUNCHALAR
Murodova Ziyoda
20-23
6. ДАВЛАТ МУАССАСАЛАРИНИНГ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ АСОСЛАРИ
Хайитов Шерзод Пардабоевич
24-28
7. IMPLEMENTATION OF THE NATIONAL PROGRAM TO EMPOWER INDEPENDENT RURAL COMMUNITIES
Md. Shodiq, Farid TH Musa, Mira Mirnawati, Novaliastuti Masiaga, Nikma Bilondatu, Abdul Rahmat
29-34
8. ANALYSIS OF INFRASTRUCTURE PLANNING FOR THE SLUM AREA OF LEKOBALO VILLAGE GORONTALO CITY
Arfan Utiahman, Mohammad Yusuf Tuloli, Kevin Saliko
35-45
9. CERVICAL CANCER EPIDEMIOLOGY IN UZBEKISTAN
Madenbayeva G. I, Khamzayeva N. T.
46-47
10. ZAMONAVIY O'ZBEKISTONDA FAN VA TEXNIKA KONVERGENTSIYASI RIVOJLANISHINING TAMOIYILLARI
Xaytboyev Boburjon Xamzayevich
48-52
11. DEVELOPMENT POINTS OF THE FACTOR ANALYSIS OF THE PROFIT TAX OF COMMERCIAL BANKS
G. Turdiyeva, doc. M. Abishov, Kadirbaeva A.
53-57
12. BUXORO VILOYAT BUXORO SHAHAR
Maqsudova Hafiza Ismatilloyna
58-61
13. BOSH MIYA GLIOBLASTOMALARINI ANIQLASHDA MRT NING AHAMIYATI
Abrayqulov I. R., Eshmuradov E. A
62-63

14. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH
Eshonkulova Kamolaxon Ibroximovna
64-67
15. O'ZBEKISTONDA SPORTNI RIVOJLANTIRISHGA BERILAYOTGAN E'TIBOR
Eshonkulova Uktam Ibroximovna
68-71
16. MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARNING KREATIVLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
Shamsiyev Sherzod Istamovich
72-80
17. ВИДЫ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ И КОНТРОЛЯ В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКАМ
Самандарова. Г.С.
81-87
18. TIBBIYOTDA ISBOTLANGAN ZAMONAVIY REANIMATSIYA
Aladinov M. A., Bozorboyev I. B, Moyliyev A. Ch., Donishev D. I., Ilmiy rahbar: Xamdamova E.G
88-90
19. INDUSTRY IN THE DIGITAL ECONOMY SUSTAINABLE BASED ON INNOVATIVE DEVELOPMENT
ENSURING ECONOMIC GROWTH
Khayitov Vazirbek, Yusupov Saidaliakbar, Aruslanov Saidamin
91-97
20. ВОПРОС ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИХ РОЛЬ В ЗАЩИТЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ А ТАКЖЕ КЛЮЧЕВЫЕ ПРОБЛЕМЫ, СВЯЗАННЫЕ С УСИЛЕНИЕМ ИХ
ВЛИЯНИЯ В МИРЕ
Рахимов Алихан Ислмович
98-102
21. ВОПРОС ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИХ РОЛЬ В ЗАЩИТЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ А ТАКЖЕ КЛЮЧЕВЫЕ ПРОБЛЕМЫ, СВЯЗАННЫЕ С УСИЛЕНИЕМ ИХ
ВЛИЯНИЯ В МИРЕ
Рахимов Алихан Ислмович
103-108
22. THE ROLE OF ABDULLAH AVLONI IN EDUCATION
Bozarova Rayhona
109-110
23. DIAGNOSTIC SIGNIFICANCE OF KLOTNO AND CYSTATIN C IN THE EARLY STAGE OF CHRONIC
KIDNEY DISEASE IN TYPE 2 DIABETES MELLITEUS
Nigina Akramovna Botirova
111-113
24. DEVELOPMENT POINTS OF THE FACTOR ANALYSIS OF THE PROFIT TAX OF COMMERCIAL
BANKS
G. Turdiyeva, doc. M. Abishov, Kadirbaeva A.
114-118
25. СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТАЯ ПАТОЛОГИЯ У ПАЦИЕНТОВ С АЛЬКОГОЛЬНОЙ БОЛЕЗНЬЮ
Ганиев Мухаммаджон Абдусалом угли, Юсупова Д. У.
119-120
26. КАРДИОТОКСИЧЕСКИЕ ОСЛОЖНЕНИЯ У ПАЦИЕНТОВ ОНКОГЕМАТОЛОГИЧЕСКОГО
ПРОФИЛЯ
Ганиев Мухаммаджон Абдусалом угли, Юсупова Д. У.
121-122

27. THE ROLE AND IMPORTANCE OF ACTION GAMES IN THE EDUCATION OF PHYSICAL QUALITIES IN YOUNG WRESTLERS
Usmonov Feruz Farhod ugli
123-128
28. THE IMPORTANCE OF INDEPENDENT LEARNING IN THE MODERN EDUCATIONAL PROCESS
Rakhmatova Nargiza Dolibaevna
129-132
29. ОКС У ПАЦИЕНТОВ МОЛОДОГО ВОЗРАСТА. КЛИНИКО-ГЕНЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ
Ганиев Мухаммаджон Абдусалом угли, Юсупова Д. У.
133-134
30. THE USE OF ALUMINUM AND ITS ALLOYS
Davulov Shukhrat Bozarovich, Erkinjonov Abdulkhamid
135-138
31. ALLOY STEELS, INFLUENCE OF ALLOYING ELEMENTS ON STEEL PROPERTIES
Davulov Shukhrat Bozarovich,, Erkinjonov Abdulkhamid
139-141
32. THE MAIN CHARACTERISTICS OF USING PASTURES IN THE DEVELOPMENT OF AN UZBEKISTAN LIVESTOCK NETWORK
Nurmatov N. E.
142-145
33. ЦИФРОВИЗАЦИЯ ОРГАНОВ САМОУПРАВЛЕНИЯ ГРАЖДАН – ОСНОВА ЭЛЕКТРОННОГО ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ
Бафаев Шухрат
146-148
34. АНТИСЕПТИКА И АСЕПТИКА
Жобиров М. А., Абророва Н. Ю.
149-153
35. CLASSIFICATION OF ORDINALS AND ITS FORMATION IN PASHTO
Zafar Normatov, Isfandiyor Abdurakhmonov
154-164
36. O'RTA ASRLARDA OILALARDA GENDER TENGLIK MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI
Umarova Yulduz Baxtiyorovna
165-170
37. АНОМАЛИИ МАТОЧНОГО КРОВОТЕЧЕНИЯ
Жураев Ислombек Иззатуллаевич, Закирова Нодира Исламовна
171-179

ZAMONAVIY O'ZBEKISTONDA FAN VA TEXNIKA KONVERGENTSIYASI RIVOJLANISHINING TAMOYILLARI

Xaytboyev Boburjon Xamzayevich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti universiteti Ijtimoiy gumanitar fanlar

kafedrasi Falsafa o'qituvchisi

bobur423bobur@gmail.com

+998 33 323 23 25

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'limda sistemali yondashuvni tashkil etishning mazmuni, tarkibi hamda amaliy ahamiyati ifodalangan.

Kalit so'zlar: turkumlashtirish, sistema, metod, analiz, ta'lim, model, sistemali yondashuv

KIRISH

Pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan o'quv jarayonida foydalanish muammosi bugungi kunda yurtimiz va xorijiy mamlakatlarining ilmiyamaliy yo'nalishlarida keng tadqiq etilmoqda. Nazariy yo'nalishda pedagogik texnologiyani pedagogikaning kategoriyasi sifatidagi mavqeini aniqlash soxasidagi izlanishlar amalga oshirilmoqda: uning tarkibiy tuzilishi, mohiyati to'g'risidagi yaxlit tushunchalar shakllantirilmoqda. Pedagogik faoliyatning turli soxalarida (didaktik, tarbiyaviy, ta'limni boshqarish) texnologiyalarning ilmiy asoslari o'rganilmoqda. Ularni loyixalashtirish nazariyasi va metodologiyasi ishlab chiqilmoqda.

Boshqacha qilib aytganda, pedagogik texnologiyalarning nazariy asosi yaratilmoqda, ilg'or pedagogik g'oya va kompensiyalarga asoslangan yangi texnologiyalar loyilashtirilmoqda, pedagoglarni ulardan foydalanishning nazariy asoslari va metodikasi ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilmoqda. Pedagogik faoliyatni qayta qurishning yaxlit vositasi bo'lgan texnologiyaning asosiy funksiyasi esa o'quvchi shaxsini rivojlantirish vazifalarini xal qilishning eng qulay, samarali yo'llarini topish va amaliyotga tadbiiq etishdan iboratdir.



Har bir pedagogning kasbiy tafakkurini va faoliyatini tarkib topdirish, uni rivojlantirishning usuli bo'lgan pedagogik texnologiyani qaror topishi, ta'lim samaradorligini oshirish o'quv predmetlarini o'qitishning individual, predmetli, modulli texnologiyalarini ishlab chiqish, ularning tub ma'nosini, ilmiy asosini anglab, ta'lim-tarbiyaning aniq sharoitlariga mos ravishda tadbqiq etish olishiga bog'liqdir. Pedagoglarning obyektiv ehtiyojlarini inobatga olish, nazariy mavqelarini aniqlashda nazariya va amaliyotning bog'liqligini e'tiborga olish muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun tadqiqotchining pedagogik texnologiyaning amaliyotchilar faoliyatida, ta'lim-tarbiya vazifalarini hal qilishda tutgan o'rnini tushunib, ularni tadbqiq etish usullarini bilishlari lozim.

Bu esa o'z navbatida, pedagoglarning texnologik jihatdan tayyorgarlik darajasini bir nechta metodlarni qo'llash orqali o'rganish lozimligini ko'rsatadi. Bundan ko'zlangan maqsad pedagoglarning o'qitish texnologiyalariga bo'lgan munosabatlarini aniqlash, pedagoglar tomonidan qo'llanilayotgan texnologiyalar mazmunini loyixalashtira olish, malakalarining shakllanganlik darajasini baxolash va pedagoglarni texnologik malakalarini oshirishga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlashdan iboratdir. Ayniqsa, pedagoglarni o'qitish texnologiyasiga bo'lgan munosabatlarini aniqlash muxim ahamiyatga egadir. Shu sababli, texnologiya zarurmi? Ularni nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqish, rivojlantirish va o'quvtarbiyaviy ishlarga tadbqiq etish kerakmi degan savollarga javob qidirish bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan muammolardan biri xisoblanadi. Ba'zi bir pedagoglar bu jarayonni vaqtinchalik yoki o'tkinchi deb tushunadilar.

Ammo, ta'lim-tarbiya murakkab dinamik jarayon bo'lib, insoniyat jamiyati taraqqiyoti rivojining xar bir bosqichida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan rivojlanish darajasiga muvofiq tarzda yangi mazmun bilan boyib boradi. Ya'ni muayyan bir bosqichda ma'naviy-intelektual jihatdan yuksak darajaga ko'tarilishi va ma'lum bir bosqichda past darajada bo'lishi ham mumkin. Bu jamiyatning ijtimoiy, milliy ongi va dunyoqarashining rivojlanish darajasiga, ijtimoiy hayot asoslari va boshqarish mexanizmlarini maqsadga yo'naltirilishiga bog'liqdir. Tarixdan ma'lumki, qaysi xalqning milliy ongi va ma'naviy-intelektual salohiyati yuksak bo'lsa, uning ijtimoiy hayot tarzi ham yuksak bo'ladi.



Demak, turmush tarzi va uning farovonligi, jamiyat a'zolarining ongiga bog'liq. Ongni yuksak darajada bo'lishi esa, o'z navbatida muayyan maqsadlarni o'zida mujassamlashtirgan mexanizmlariga bog'liqdir. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya texnologiyalarining mukammal, takomillashtirilgan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish hayotiy zaruriyat hisoblanadi. Inson nafaqat iste'molchi, balki yaratuvchi va ijodkor hamdir.

Ijodkor-yaratuvchigina, iste'molchi bo'lishga xaqlidir. Bugungi kunda "pedagogik texnologiya" va uni o'qitish texnologiyasi pedagogikaning tushunchalari doirasida munosib o'rinni egallab, amaliyotda to'liq namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun pedagoglar oldida turgan birinchi vazifa bu texnologiyani mehnat quroli sifatida qabul qilish bilan birga uni ob'ektiv zaruriyat ekanligini anglab yetishlaridadir.

ASOSIY QISM

O'qitish texnologiyasini pedagoglarning qarashlari bo'yicha quyidagi uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh pedagoglarning fikricha, texnologiya bu belgilangan maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlovchi o'qitish vositasi, metodlari, shakl va mazmuni tizimidir. Ikkinchi guruh pedagoglarning fikricha esa, texnologiya bu mashg'ulot davomida pedagog va o'quvchilarning amalga oshiradigan aniq faoliyatidir. Uchinchi guruh pedagoglarning fikricha esa, texnologiya bu o'qitishning aloxida usuli, pedagogning dars jarayonidagi harakati, o'qitishni loyixalashtirish faoliyatidir.

Qayd etilgan fikrlarda pedagogik texnologiyaning maqsadga yo'naltirilganlik, oldindan rejalashtirilgan natijalarga erishishga yo'naltirilganlik, proressuallik singari muxim xossalari o'z ifodasini topgan. Shuningdek, o'qitishning mazmuni, shakllari, vosita va metodlari kabi tarkibiy qismlari aks ettirilgan. Texnologiya tushunchasining turlicha talqin etilishi, uning mohiyatini pedagogika fanida har xil ifodalanishini ifoda etadi.

Pedagoglarning navbatdagi vazifasi o'quv predmetini o'qitish jarayonida amaliyotga tadbiiq etilayotgan texnologiyalarining xarakteri va mazmuni haqida ma'lumotga ega bo'lish. Maqsadni qo'ygan har bir pedagog o'quvchilar tomonidan dastur ma'teriallarini o'zlashtirishiga erishish, ularda mustaqillikni, tashabbuskorlikni, bilishga qiziqishni, tanqidiy tafakkur qilish ko'nikmalarini shakllantirib, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishi kerak. Shu bilan bir



qatorda, o'quv jarayonida shaxsning individual sifatlarini aniqlashga jiddiy e'tibor berish lozim. Hozirga qadar maqsadning qo'yilishi an'anaviy metodika asosida ya'ni, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar birligida amalga oshirilmoqda.

Demak, o'qituvchilar maqsadni belgilovchi boshqa usullardan foydalanishmaydi, o'z faoliyatlarida ta'limni rivojlantiruvchi konsepsiyalarni o'rganishmaydi. O'quv predmetining mazmunini loyihalashtirishda uning dasturidan dogmatik tarzda foydalanishadi.

O'quv predmetining mazmuni tarkibini o'zgartirish va modernizatsiyalashtirishga harakat qilishmaydi, ya'ni o'quv predmeti bo'yicha mualliflik dasturiga ega emaslar. Xullas, predmetlarning mavjud o'quv dasturi bazi o'qituvchilarni qoniqtiradi, ba'zilar esa yangi dastur ishlab chiqish tarafdori. Bu o'qituvchilar o'quv dasturlarini qanday takomillashtirmoqdalar? Bu borada olib borilgan tadqiqot tahlillar shuni ko'rsatadiki, taxminan 5-10% o'qituvchilargina predmetni o'qitish texnologiyasiga yangi usul va uslublarni joriy qilishga harakat qilishar ekan. Ta'lim jarayonini to'liq yangi texnologiyalar asosida tashkil qilish haqida biror narsa deyish qiyin. Ayrim o'qituvchilarimiz rivojlantiruvchi o'qitish, o'qitishni differentsiyalash va individuallashtirish, o'qitishning modulli texnologiyasi, o'yinli texnologiya va boshqalarni amaliy faoliyatga tadbiiq etish u yoqda tursin, hatto tushunchaga ham ega emas ekan. O'qituvchilar tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan turli xil pedagogik texnologiyalarning elementlari va g'oyalari esa quyidagilardan iborat:

- Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi (o'quvchini fikrlashga majbur qiladi);
- Muammoli o'qitish texnologiyasi;
- Modulli o'qitish texnologiyasi;
- Turli o'yin texnologiyalari;
- Muloqot madaniyati;
- Tayanch konsepsiyalar;
- O'qitishni individuallashtirish;
- Differentsiallashtirish;
- O'qitishning texnik vositalari;
- Hamkorlik.

O'qituvchilarning texnologiyalarni loyixalashtira olish malakalarini aniqlash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:



- Mashg'ulot va predmetni o'qitish maqsadlarini belgilay olish;
- O'qitish texnologiyalarini taxlil qila olish;
- O'quv predmetining rivojlantiruvchi g'oya va tamoyillarini belgilab olishi;
- O'qitish jarayoni modelini tuza olishi;
- O'qitish metod va vositalarini tanlash, ularning mazmunini loyixalash;
- O'qitish muammolarini xal qila olish;
- O'qitish metod va vositalarini tanlash, ularning mazmunini loyixalash;
- O'qitish muammolarini taxlil qila olish;
- O'quv jarayonini tadqiq qila olish.

Hozirgi kunda ko'pgina o'qituvchilarimiz maqsadni belgilash, o'qitish metod va vositalarini tanlash malakalariga ega, lekin ularning ko'pchiligi bu masalalarga jiddiy e'tibor bermasdan "mulla bilganini o'qiydi" qabilidagi faoliyatni amalga oshirib, o'z bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish masalasiga yuzaki qarashadi. Buning asosiy sababi esa, ularda o'quv predmetini rivojlantiruvchi g'oya va tamoyillarini belgilash, texnologiyalarni taxlil qilish, predmet dasturlarini, o'qitish jarayoni modelini, o'qitish metod va vositalari mazmunini ishlab chiqish, o'qitish muammolarini tahlil qilish va o'quv jarayonini tadqiq qilish ko'nikma va malakalari rivojlanmaganligidir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'qitish texnologiyalarining samaradorligini oshirish asosida yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlashni ta'minlash, pedagogik faoliyatning universal usuli hisoblangan loyihalashtiruvchi ijodiy tafakkurni rivojlantirish – ta'lim sohasida yangi maqsad va natijalarga erishishning muxim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 4-jild. –T.:“O'zME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002 y. 169-bet.
2. Gimush R.I. Innovatsion menejment. – T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 10 b.
3. To'xliiev N. Globallashuv jarayonida milliy iqtisodiyotlarning innovatsion rivojlanishi muammolari. Ilmiy-texnik va innovatsion taraqqiyot: global, mintaqaviy va milliy iqtisodiy tendensiyalar.

